

O'zbekiston va Rossiya yetakchilari savdo-iqtisodiy hamkorlikning dolzarb masalalarini muhokama qildilar



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 11-aprel kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan o'tkazgan telefon orqali muloqotida tovar ayirboshlash sur'atlarini ta'minlash va qo'shma kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan birinchi galdagi chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Ikki mamlakat ishbiarmonlari va hududlari darajasidagi amaliy hamkorlikni ilgari surishda aprel oyining oxirida Toshkent shahrida o'tkaziladigan "Innoprom" xalqaro sanoat ko'rgazmasi imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Madaniy-gumanitar almashinuv dasturi doirasidagi hamkorlik sermahsul bo'layotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O'zbekiston va Rossiya rahbarlari bo'lajak ikki va ko'p tomonlama tadbirlar rejasini ham ko'rib chiqdilar.

Manba